MILLIY TARBIYA VA MA’NAVIYAT GA E’TIBORSIZLIK – O‘ZLIKNI ANGLASHGA-TAHDIDDIR

Jo‘rayev Risboy Haydarovich
Pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston
Fanlar akademiyasi akademigi

Annotatsiya. Maqolada insonning o‘zligini anglash, yoshlar ma’naviyati va milliy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, globallashuv va axborot xurujlari sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash hamda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalalari tahlil qilingan. Maqolada tarixiy xotira va boy ma’naviy merosni asrab-avaylash yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning muhim omili sifatida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zlikni anglash, milliy tarbiya, yoshlar ma’naviyati, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tarixiy xotira, ma’naviy meros, vatanparvarlik, milliy g‘oya, globallashuv.

Аннотация. В статье освещается значение осознания человеком своей идентичности, духовности молодёжи и национального воспитания в развитии общества. Рассматриваются вопросы воспитания молодого поколения в условиях глобализации и информационных угроз на основе национальных и общечеловеческих ценностей, патриотизма, самостоятельного мышления и высоких духовно-нравственных качеств. Историческая память и богатое духовное наследие рассматриваются как важные факторы воспитания гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: самосознание, национальное воспитание, духовность молодёжи, национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, историческая память, духовное наследие, патриотизм, национальная идея, глобализация.

Abstract. The article highlights the importance of self-awareness, youth spirituality, and national upbringing in the development of society. It examines the upbringing of young people in the context of globalization and information threats based on national and universal human values, patriotism, independent thinking, and high spiritual and moral qualities. Historical memory and rich spiritual heritage are considered important factors in educating a well-rounded younger



Bugun yoshlarimizda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari paydo bo‘layotgani, ma’naviy olami, ijtimoiy faolligi barcha yutuqlar poydevori, kuch-qudrat manbaiga aylanayotgani, ayniqsa, yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarimiz negizida inson omili hal qiluvchi rol o‘ynayotganini kuzatish mumkin.

generation.

Keywords: self-awareness, national upbringing, youth spirituality, natio- nal values, spiritual and moral education, historical memory, spiritual heritage, patriotism, national idea, globalization.

Har bir inson hayoti davomida o‘zligini anglashga intilishi, tinimsiz sa’y-harakat qilishi kerak. Men kimman, qaysi yo‘ldan ketayapman, yashashdan maq- sadim nima, kimlarning avlodiman, kelajakda qanday yashashim kerak kabi savollarga bugungi davr ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda javob izlashga harakat qilishi lozim. Bu savollarga to‘g‘ri va mukammal javob topishda, albatta, inson bilimi, dunyoqarashi va tafakkuri muhim o‘rin tutadi. Bitta oilada ba’zan bilimi, iqtidori, fe’l-atvori, odob-axloqi turli xil bo‘lgan farzandlar voyaga yetishi mumkin. Biri odob-axloqli bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rnini topsa, ikkinchisi hatto jinoyatgacha qo‘l urishi ham mumkin. Bu, eng avvalo, yuqoridagi savollarga o‘z vaqtida va to‘g‘ri topilgan javobimiz, pirovardida, o‘zligimizni anglashga bo‘lgan e’tibor va sa’y-harakatlarimiz natijasi va mahsuli bi-

lan bog‘liq jarayon sanaladi. Bunda, ayniqsa, uzluksiz ma’naviy tarbiya muhim o‘rin tutishi shubhasiz.

Hozirgi globallashuv, axborot kommunikatsiya vositalari kun sayin rivojlanib borayotgan bir davrda aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlarda milliy g‘oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalash, ularda mafkuraviy-ma’naviy immunitetni shakl- lantirishning dol- zarbligi yanada oshmoqda. Chunki dunyo miqyosida axborot xuruji, turli xil yot ta’sirlar, ommaviy madaniyat niqobi ostida mafkuraviy-ma’naviy tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday ma’naviy-mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda bizga milliy tarbiya va yuksak ma’naviyat asosiy vosita va kuch sifatida xizmat qiladi. Yoshlarimizni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash,ularda ma’naviy jasorat tuyg‘usini shakllantirish navqiron avlodni turli tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir. So‘nggi yillarda milliy tarbiya, milliy ma’naviyat bo‘yicha ko‘plab darslik, qo‘llanma va monografiyalar yaratildi. Tarbiya ona qornidan boshlanishi, oila va maktabgacha

Dunyoda ma’naviy tahdidlar xavfi ortib borayotgan bir davrda mustaqil va sog‘lom fikrlaydigan, ajdodlarga yuksak hurmat ruhida ularga munosib bo‘lishga intiladigan avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan ekan, bu jarayonda faol ishtirok etish har birimiz, ayniqsa, biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir.

ta’lim muassasalarida davom etishi, umumta’lim maktablarida izchil amalga oshirilishi jamiyatda buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar yetishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va qonunchilik jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismo- nan va ma’nan yetuk insonlar qilib tarbiyalash, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari, biror kasb yoki hunar egallashlariga xizmat qilmoqda.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri tari-xiy xotira - ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo‘lib, o‘tganlar xotira- sini yodda saqlagan holda, e’zozlab yashash demakdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyati- ning tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, yoshlarimiz qalbi va ongini milliy tarbiya asosida olib

borilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy davlatchilik asoslari milliy o‘zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda. Milliy-ma’naviy yangilanish, qadriyatlarning qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omi- liga aylandi. Yoshlarimizning fidoyi bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z oldiga qo‘ygan bunyod- korlik, yaratuvchanlik maqsadlari sari tinimsiz harakat qilishi, o‘qib-o‘rganishi, izlanishi, butun kuch-quvvatini sarf etishi, o‘zidagi bunday fazilat va ko‘nikmalarni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirib borishi ulardagi milliy tarbiya va ma’naviyat darajasining o‘ziga xos ifodasidir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ham aynan tarbiya bilan bog‘liq. Buyuk faylasuf Aflotun “Yaxshilar mas’uliyat bilan ish qilishlari uchun qonunlarga muhtoj bo‘lmaydilar. Yomonlar qonunlarga chap berish uchun yo‘l topadilar”, deb aytganidek, milliy tarbiya qaror topmagan, ma’naviyat qadrlanmagan jamiyatda na qonunlar ishlaydi, na mehr-oqibat g‘alaba qozonadi.

Yoshlar tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgan bugungi davrda ular o‘zlariga yaratib berilayotgan bunday imkoniyatlardan unumli foydalanishlari, kelajak navqiron avlodlar qo‘lida ekanligini hech qachon unut- masliklari, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimizni asrab-avvaylab, bizdan keyingi avlodlarga yetkazishlari lozimligini hech qachon unutmasliklari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.